

INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA "MEHMONDO'STLIK" TUSHUNCHASINING LEKSIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xamroxonova Sokinaxon Jo'raxon qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Har bir mamlakatning o'zining urf-odatlarini, e'tiqodini, diniy qarashlarini mavjud. Mexmondo'stlik tushunchasi azal azaldan o'rganilib kelgan, uning frazeologik tasvirini o'rganar ekanmiz, avvalam bor uning "madaniyati" ga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. O'zbek va ingliz tili madaniyatlari azaldan rivojlangan uzoq va boy tarixga ega.

Kalit so'zlar: Mexmondo'stlik, leksik, semantik, bag'rikenlik, yuksak insonparvarlik.

Mehmondo'stlik - ulug'axloqiy fazilat. Xalqimizda "Mehmon kelgan uy – barakali", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmon – uyning ziynati" kabi ko'plab maqol va hikmatlar bejizga aytilmagan. Xalqimiz mehmondo'stlikni yaxshilik ramzi deb biladi. Uyiga tez-tez mehmon kelib turgan oilaning mahallada obro'si ortadi. Ularning farzandlarida ham xushfe'llik, samimiylik kabi yaxshi sifatlar shakllanadi. Mehmon kutish fazilat hamda o'ziga xos mas'uliyat talab qiladigan vazifa. Mehmon kutishning bir qancha odoblari bor. Avvalo, uyga kelgan mehmonni ochiq chehra bilan kutib olish hamda uni uyga taklif qilish lozim bo'ladi. Mehmonning oldiga dasturxon yoziladi. Birinchi bo'lib dasturxonga meva-cheva tortilgani yaxshiroq. Dasturxonga qo'yilgan ne'matlar odamning qo'li yetadigan joyda bo'lishi, faqat yeyiladigan ne'matlar qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehmonni taomga taklif qilish, ammo bu ishda haddan oshmaslik kerak. Mehmonning huzurida sukutni cho'zib yubormaslik hamda go'zal suhbatlar qilish lozim bo'ladi. Mezbon mehmon o'tirgan xonaga kirib chiqayotganda xursandligini izhor qiladi. Mehmonni uzoq vaqt yolg'iz qoldirmaydi, shuningdek, mehmonning yonida uydagi yosh bolalarga yomon munosabatda bo'lmaydi. Mehmon izn so'raganda, izn beriladi va ochiq chehra bilan kuzatib qo'yiladi. Mehmondo'stlik bag'rikenglik, jo'mardlik, saxovat, yuksak insonparvarlik, shirinsuxanlik kabi go'zal axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Asrlar mobaynida xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, kelgan mehmonni samimiy kutib olish, unga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi go'zal fazilatlar xalqimiz tarixida ming yillardan beri o'rin olib kelayotgan an'analarimizdandir.

Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig", ya'ni "Saodatga eltuvchi bilim" nomli asarida ham mehmondo'stlik fazilatiga alohida to'xtaladi:

Agar sen chorlasang uyingga **mehmon**,

Oldin taraddud qil, ey dono inson.

Pok bo'lsin oshu non, uy-joy, to'n-to'shak,

Bergan tuzing manzur bo'lmog'i kerak.

Quyidagi o'zbek tilidagi asarni qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, undagi berilgan "mehmon" so'zi qanchalik keng mano'da talqin etilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Mazkur tillarda turli xil vaziyatlarda foydalanishga ixtisoslashgan lisoniy birliklar, so'zlar, iboralar mavjud. Ushbu atamalar millatlarning hayot tarzi, an'analar, mentalitet, va ayniqsa, insonlarning ichki his-tuyg'ulari, har xil vaziyatdagi munosabatlarning ramziy ishorasi bo'lib xizmat qiladi. Ularni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishga imkon bo'lmagan holda, chet elliklarga aniq va tushunarli bo'lish maqsadida izohlab berilishi kerak. Misol uchun, o'zbek lingvomadaniyatida:

“**Keling**” (birlikda) yoki “**Kelinglar**” (ko'plikda)

luqmasi tez-tez uchraydi. Mazkur iboralar ingliz tilida esa:

“**Come**” (mehmonga kelish taklifi)

tariqasida tarjima qilinadi. Rus tilida esa quyidagicha:

“**Приходи**”(birlikda) yoki “**Приходите**”(ko'plikda)

O'zbek xalqi juda mehmondo'st bo'lib, o'z qarindoshlar, qo'shnilar yoki do'stlarni ko'chada, do'konda, parkda uchraganda odatda mazkur luqmani qo'llashadi. Agar biz ingliz tili sohibiga “**Come to my place (home)**” tarzidagi gapni aytsak, u albatta taklifning aniq vaqti va sababini so'raydi, chunki inglizlar orasida bunday jumla norasmiy muloqotning odatiy iborasi sifatida ishlatilmaydi. Rus xalqlarida esa odatiy so'z hisoblanadi.

Boshqa misol tariqasida o'zbeklar bir-biri bilan xayrlashganda aytiladigan:

“**Charchamang**” iborasini keltirishimiz mumkin. Mazkur tilakni ingliz tiliga “**Dont be tired**” yo'sinida o'girishimiz mumkin. O'zbek xalqiga mansub odamlar uchun ushbu ibora shunchaki muloqot vositasi sifatida ishlatilib, charchaganlikdan darak bermaydi. Ushbu ibora muloqot aktlarida o'zaro almashiniladigan ijobiy tilak sifatida aytiladi. Biroq, ingliz tili sohibi “**Dont be tired**” jumlasini g'alati tilak sifatida qabul qiladi, chunki ingliz madaniyati uchun bunday tilak nojo'yadir. Aksincha, ular bir-biriga “**Good luck**” (Omad yor bo'lsin) yoki “**Good mood**” (Yaxshi kayfiyatda bo'ling) istaklarini bildiradi. Rus xalqida esa “**He уставайте**”ya'ni(charchamang) oddiy rasmiy muloqotda ko'p qo'llaniladigan so'z sifatida ishlatiladi. Rus xalqi hikoyalari uni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: Rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov (1860 - 1904) ning "Bektoshi uzumlari" (1898) hikoyasida:

— Павел Константиныч, — проговорил он умоляющим голосом, — не успокаивайтесь, **не давайте** усыплять себя!” Пока молоды, сильны, бодры, **не уставайте делать добро!** Счастья нет и не должно его быть, а если в жизни есть смысл и цель, то смысл этот и цель вовсе не в нашем счастье, а в чем-то более разумном и великом. **Делайте добро!**”

O'zbek tiliga quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

- Pavel Konstantinich, - dedi u iltijo ovoz bilan, - tinchlanmang, o'zingizni uxlashga yo'l qo'ymang! Yoshligingizda, kuchli, qudratli, **yaxshilik qilishdan charchamang!** Baxt yo'q bo'lishi kerak emas, lekin agar hayotning mazmuni va mazmuni bo'lsa, demak, bu ma'no va maqsad bizning baxtimizga emas, balki yanada oqilona va buyukroq narsada. **Yaxshilik qiling!** ”

Rus tilidagi quyidagi hikoyani tahlil qilar ekanmiz, bu yerda frazeologik, psixologik tushunchalarni ko'rishimiz mumkin.

Ingliz, o'zbek va rus tillarida “mehmondo'stlik” tushunchasining leksikasini tahlil qilar ekanmiz, asosan bu tushunchaning uchala tildagi tasnifi bo'yicha o'rganib chiqishimiz lozim.

Insonning nafaqat tashqi ko‘rinishi yoxud tilidan, balki uning xatti-harakatidan, fe‘l-atvoridan, tashqi muhitga munosabatidan ham uning kimligini, qaysi millatga mansubligini ilg‘ab olish mumkin. Masalan, o‘zbekni ko‘chadami, yo‘ldami, ishxona yoxud dam olish maskanidami, qayerda bo‘lmasin, uchratib qolsangiz, xayrlashuv onida:

“Uyga keling, bir piyola choyimiz bor” deydi.

Negaki mehmondo‘stlik o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan. Bu fe‘l, bu xislat undan faqat jon bilan birga chiqishi mumkin. Nega shunday? O‘zbekning avlod-avlodiga o‘tib kelayotgan bunday fazilatlar juda ko‘p. Deylik, halollik, rostgo‘ylik, diyonat, omonatga xiyonat qilmaslik, uyat, or-nomus, lafz, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, andisha kabi son-sanoqsiz fazilatlar o‘zbekka o‘zi kiygan to‘ni va do‘ppisi yanglig‘ yarashib turadi. Kontseptual tahlilni boshlashda tilning leksik tizimida kontseptsiyaning to‘liq semantik hajmini o‘rnatish kerak. Ma‘lumki, lug‘atning ta‘rifi kontseptsiyaning asosiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ахмедова, В. (2024). ВКЛАД ЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ. *Modern Science and Research*, 3(7).

2. Akhmedova, V., & Ergasheva M. (2024). THE IMAGE OF ALISHER NAVAI IN HISTORICAL DRAMA. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(8), 21-26.

3. Akhmedova, V. . (2024). ENLIGHTENMENT IDEAS IN JADID DRAMA. *Collection of Scientific Papers «ΛΟΓΟΣ»*, (March 1, 2024; Paris, France), 297–299.

4. Vaziraxon Akhmedova , ., & Maksimova Nataliya Leonidovna , . (2024). THE INFLUENCE OF WORLD DRAMATURGY ON THE DEVELOPMENT OF UZBEK DRAMATURGY DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 5(05), 120–128.

5. O‘ZBEK VA JAHON DRAMATURGIYASIDAGI NAZARIY MASALALARNING QIYOSIY TADQIQI
<https://www.uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/2916/2856>

6.Sokinaxon, Xamroxonova Jo‘raxonovna. "XALQARO MUNOSABATLARNI BILDIRUVCHI TERMINLARNING STRUKTURAVIY VA SEMANTIK TAHLILI." *Евразийский журнал академических исследований* 2.3 (2022): 355-358.

7.Khamrokhonova S. J., Karimov I. The role of cognitive and conceptual analysis in the linguistic and cultural approach //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 365-369.

8.Sokinaxon, Xamroxonova. "INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA" MEHMONDO‘STLIK" TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 2.5 (2023): 42-45.

9.Sokinaxon , X. J. . (2022). XALQARO MUNOSABATLARNI BILDIRUVCHI TERMINLARNING STRUKTURAVIY VA SEMANTIK TAHLILI . *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 355–358.

10. Xamroxonova, S. J. "O'zbek tilidagi iboralar tizimini o'rganishning nazariy muammolari." *Science and Education* 3.10 (2022): 659-663.
11. Xamroxonova Sokinaxon. (2023). INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA "MEHMONDO'STLIK" TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 2(5), 42–45.
12. Jurakhonovna, Khamrokhonova Sokinakhan. "THE CONCEPT OF" HOSPITALITY" IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF EXPRESSIVE PROVERBS." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.9 (2024): 25-28.
13. Sokinaxon, Xamroxonova. "INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA" MEHMONDO'STLIK" TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnal* 2.5 (20).
14. Khamrokhonova S. J., Karimov I. The role of cognitive and conceptual analysis in the linguistic and cultural approach // *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. –2023. –T. 2. –No. 2. –C. 365-369.*
15. S.J. Xamroxonova. (2023). LINGVOMADANIY YONDASHUVDA KOGNITIV VA KONSEPTUAL TAHLILNING O'RNI. *Ustozlar Uchun*, 50(2), 192–196.
16. Xamroxonova, S. . (2022). DUNYONING LINGVOMADANIY MANZARASI VA UNING TILDA AKS ETISHI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 1(29), 25–30.
17. Aripova, Ulbosin. "ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО И ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ." *FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR* 4.14 (2024): 12-13.
18. Aripova, Ulbosin, and Dilshoda Sattorova. "EFL (INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH) O'QITUVCHILARI TOMONIDAN FOYDALANILADIGAN ENG YAXSHI O'QITISH TEXNIKASI VA METODLARI." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
19. ARIPOVA, Ulbosin. "TANQIDIY FIKRLASHNING HAM JAMIYADAGI HAM TA'LIM SOHASIDAGI DOLZARBLIGI." *News of UzMU journal* 1.1.3 (2024): 69-72.
20. qizi Aripova, Ulbosin Muxametkarim. "DEVELOPING CRITICAL THINKING FOR WRITING ESSAYS." *Results of National Scientific Research International Journal* 2.10 (2023): 101-105.
21. Aripova, Ulbosin. "STAGES OF HISTORICAL PROGRESS IN THE DEVELOPMENT OF CRITICAL AND LOGICAL THINKING." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 6.10 (2024): 89-91.
22. Maksetova, Zuhra To'Rebayevna, S. B. Qambaraliyev, and A. Sh Yunusov. "TILSHUNOSLIKDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI VA ULARNING TASNIFI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5 (2022): 182-186.
24. Maksetova, Zuhra To'rebayevna, Usmonali Ummatali O'G'Li Raxmatov, and Firdavs Sherzod O'G'Li Abbosboyev. "Rang komponentli frazeologik birliklarning tilshunoslikdagi hususiyati." *Science and Education* 3.5 (2022): 1933-1936.

27.Makhsetova, Zuhra To'rebayevna. "Frazeologik birliklar va ularning boshqa birliklardan farqi." *Science and Education* 3.10 (2022): 668-671.

28.Texnika, Toshkent Davlat. "Frazeologik birliklarning lingvomadaniy hususiyatlari." *Open Academia: Journal of Scholarly Research* 2.10 (2024): 1-4.